

YOSHLARNING BO'SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH

*Sergeli tumani Saxovat mfy yoshlar yetakchisi
Dadaboyev Shoxrux Ulug'bek o'g'li
e-pochta:*

Annotatsiya: Zamonaviy hayot sharoitlarida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasi juda muhimdir. Bo'sh vaqtni samarali o'tkazish, nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga ham yordam beradi. Ushbu maqolada yoshlarning bo'sh vaqtini qanday qilib mazmunli va foydali o'tkazish mumkinligi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: yoshlar, innovatsiya, ta'lim, sport, iqtisodiyot, resurs, kitobxon, taraqqiyot, jamiyat.

ЗНАЧИМАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ДОСУГА МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В условиях современной жизни очень важен вопрос осмысленной организации свободного времени молодежи. Эффективное проведение свободного времени помогает не только личностному развитию, но и активному участию в общественной жизни. В этой статье мы рассмотрим, как осмысленно и с пользой провести свободное время молодежи.

Ключевые слова: молодежь, инновации, образование, спорт, экономика, ресурс, читатель, развитие, общество.

MEANINGFUL ORGANIZATION OF YOUTH'S LEISURE TIME

Abstract: In the conditions of modern life, the issue of meaningful organization of free time of young people is very important. Spending free time effectively helps not only personal development, but also active participation in social life. In this article, we will consider how to spend free time of young people meaningfully and usefully.

Key words: youth, innovation, education, sport, economy, resource, reader, development, society.

Kirish

Yoshlarimiz, jamiyatimizning eng qimmatbaho resursi sifatida, kelajagimizni belgilovchi omil hisoblanadi. Aholimizning deyarli 30 foizi 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat ekanligi, ularning o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi. Bu yosh avlodni o'qitish, ularga kasb-hunar o'rgatish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish har birimizning burchimizdir.

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etishi, ilm-fan va madaniyat sohalarida erishayotgan yutuqlari jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shmaqda. Ota-onalar, ustozlar va mahalla faollari yoshlarni to'g'ri yo'naltirishda muhim rol o'yaydi. Yoshlarning kelajagi birinchi navbatda ularga ko'rsatgan yo'lidan bog'liqdir. Agar biz ularning vaqtini qanday o'tkazayotganini diqqat bilan kuzatmasak, bu ularni salbiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Dinimizdan kelib chiqadigan ilm o'rganish zarurati ham yurtimizning kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hadislar va oyatlar orqali bizga yetkazilgan bilim olishning muhimligi har bir avlod uchun dolzARB masala hisoblanadi. Yoshlikda olingan bilimlar hayot davomida foydali bo'ladi va bu bilimlarni to'g'ri yo'naltirish esa jamiyat tarakkiyotining asosidir.

Asosiy qism

Yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ularga yaxshi namuna bo'lish va ulardan kutilayotgan natijalarni shakllantirish juda muhimdir. Har bir yosh insonning rivojlanishi uchun kerakli sharoitlar yaratilib, ulardan foydalanishga imkon berilishi lozim. Shunday qilib, ularga rahbarlik qilish va to'g'ri yo'lni ko'rsatishda barcha qatlamlardagi odamlarning mas'uliyati ortadi.

Kelajakni buyuk qilish uchun har birimiz o'z hissamizni qo'shishga tayyor bo'lishimiz kerak. Yoshlarni yuksak maqsadlar sari undash orqali biz millat sifatida yanada mustahkamlanamiz va yurt ravnaqi yo'lida katta qadamlar tashlaymiz.[1]

Bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning birinchi yo'li — bu ta'lim va o'qishga e'tibor qaratishdir. Yoshlar o'z qiziqishlariga mos kitoblar o'qib, yangi bilimlarni egallashlari mumkin. Shu bilan birga, onlayn kurslar yoki seminarlar orqali yangi ko'nikmalarni o'rganish ham juda foydali bo'ladi. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydi, balki mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatlarini ham oshiradi. Yoshlar — jamiyatning eng faol va dinamik qatlamidir. Ularning bo'sh vaqt esa, o'z navbatida, shaxsiy rivojlanish, bilim olish va ijtimoiy faollik uchun muhimdir. Bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish yoshlarning keljakdagagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratadi. Shu sababli, bo'sh vaqtini qanday o'tkazish kerakligi haqida bir necha fikrlarni keltirib o'tmoqchiman:

- ✓ Birinchidan, yoshlar bo'sh vaqtlarini madaniy tadbirlarda ishtirok etib o'tkazishlari mumkin. Teatr, kino, musiqa konsertlari yoki san'at ko'rgazmalari kabi tadbirlar nafaqat zavqlanish balki estetik jihatdan ham boyitadi. Bu kabi tadbirlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

- ✓ Ikkinchidan, sport bilan shug'ullanish — bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishning yana bir muhim yo'lidir. Sport nafaqat jismoniy salomatlikni ta'minlaydi balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Yoshlar sport orqali yangi do'stlar orttirishi, jamoada ishslash ko'nikmalarini o'zlashtirishi va raqobatbardosh ruhga ega bo'lishlari mumkin.

✓ Uchinchidan, kitob o'qish — bu yanada mazmunli va foydali faoliyatdir. O'qish yoshlarni yangi g'oyalar bilan tanishtiradi, bilim doirasini kengaytiradi va nutq madaniyatini oshiradi. Yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish maqsadida kutubxonalar tashkil etilishi yoki o'qish klublarining ochilishi juda foydali bo'lardi.

✓ To'rtinchidan, ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etish ham yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yordam beradi. Turli xayriya tadbirlari, ekologik loyihamalar yoki volontyorlik ishlariga jalb qilish orqali yoshlar jamiyatga foyda keltirish bilan birga o'zlarini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.[2]

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn kurslarda ishtirok etish yoki yangi tillarni o'rganishni boshlash — bu ham juda yaxshi imkoniyatdir. Internet orqali turli resurslardan foydalanib bilim olish yanada qulaylashdi. Ota-onalar o'z farzandlari tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatni his qilishlari, ularni oiladan uzoqda qoldirmasliklari, vaqt-vaqt bilan farzandlarining qiziqishlari va faoliyatlarini nazorat qilishlari zarur. Bugungi kunda, ko'plab ota-onalar ish bilan band bo'lib, farzandlariga etarli vaqt ajratmayaptilar. Bu esa yosh avlodning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va ularning ruhiy rivojlanishiga hiyonat sanaladi.

Yoshlarimizning telefon va onlayn o'yinlarga bog'lanib qolishi, ularga kerakli bo'lgan bilim va ko'nikmalardan mahrum bo'lishlariga olib kelmoqda. Farzandlarining bo'sh vaqtida nima qilayotganligi, kimlar bilan do'st tutayotganligi yoki kimlarni o'z idealidagi inson sifatida ko'rayotganligini ota-onalar e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak. Ularning qiziqishlarini tushunish va to'g'ri yo'naltirish uchun ota-onalar o'z farzandlari bilan ochiq muloqotda bo'lishlari lozim.[3]

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishga va bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga odatlantirish har bir oilaning vazifasidir. Ota-onalar farzandlarining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab, ularga yangi imkoniyatlar yaratishi kerak. Bu nafaqat farzandlarning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim, balki jamiyatimizning kelajagi uchun ham katta ahamiyatga ega. Farzandlarimizni muvaffaqiyatli insonlar qilib tarbiyalash – bu bizning burchimizdir. Shu o'rinda bir savol tug'ilishi tabiiy: Yoshlarni qanday qilib yanada faolroq jalb qilish mumkin? Ularning qiziqishlari va istaklarini hisobga olgan holda ta'lim tizimini yangilash kerakmi? Yoki yoshlarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirish uchun maxsus dasturlar yaratish lozimmi? Yoshlarimizning kelajagi bizning qo'llarimizda. Agar ularga kerakli e'tibor berilsa, ular mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo'shishga tayyor bo'lishadi. Shuning uchun har bir kattaning vazifikasi – yoshlarga yo'l ko'rsatish va ularni rag'batlantirishdir. Faqat shunday bo'lgan taqdirdagina biz keljak avlodni yanada yorqin kunga tayyorlaymiz.[4]

Xulosa

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ularning shaxsiy rivojlanishi va hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim olishdan sport bilan

shug'ullanishgacha, ijodkorlikdan ijtimoiy faollikka qadar turli yo'llar mavjud. Muhimi — har bir yosh odam o'zining qiziqishi va ehtiyojlariga mos keladigan faoliyatlarni tanlashi kerakki, bu ularga baxtiyorlik va muvaffaqiyat olib kelsin. Yoshlarimizning har bir o'tkazayotgan vaqtlariga kattalar befarq bo'lmasalar, ular o'z to'g'ri yo'llaridan adashmaydilar. Unutmaylik, qaysi jamiyatda yoshlar kattalarning e'tiborida bo'lib, yoshligini ilmu-hunar o'rganishga sarflasa, bu jamiyat yuksaladi. Aksincha, biron jamiyatda befarqlik va loqaydlik avj olsa, o'sha jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Bu borada 20-asr boshlarida yurtimizdan yetishib chiqqan Jadidchilik harakati nomoyondalaridan biri Muhamudxo'ja Behbudiy "Dunnyoda turmoq uchun dunyoviy ilmlarni o'rganmoq lozim" degan edi. Agar biz yoshlarning bo'sh vaqtlarini foydali ilmlarni o'rganishlariga yo'naltira olsak, o'yaymanki, diyorimizdan yana Ibn Sinolar, Xorazmiylar, Beruniylar va Navoiylar kabi ko'plab buyuk shaxslar yetishib chiqadi. Bu sohada hozirda "o'qiyan", "hunar o'rganaman" degan har bir yoshga O'zbekistonimizda yatarlicha shart-sharoitlar yaratib qo'yilgan. Raqamli ta'lim platformalari, zamonaviy kasb-hunar markazlari va innovatsion loyihalar yoshlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI TO'G'RISIDA'gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 14.09.2016 yildagi 0'RQ-406-soni
2. <https://lyceum.tma.uz/besh-muhim-tashabbus/>
3. Аширбаева А.Ж., Мамазиаева Э.А. Решение нелинейного операторно-дифференциального уравнения в частных производных второго порядка методом дополнительного аргумента // Вестник КРСУ. 2015. -Т.15 -№5. - С. 61-64.
4. Mambetov Zh. Method of additional argument for system of non-linear partial differential equations of the first order [Текст]/ Ashirbaeva A., Mambetov Zh. // Abstracts of VI Congress of the Turkic World Mathe-matical Society, October 2-5, 2017 Astana, Kazakhstan / Ed. by Acad. B.T. Zhumagulov. - P. 37.